

O'zbekistonning janubida o'rta paleolit davriga oid yangi yodgorlik aniqlandi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi xodimlari t.f.d., professor R.Suleymanov boshchiligida Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanida arxeologik dala tadqiqotlari olib borildi. Dala tadqiqotlari natijasida Ko'hitangtog' tizmasi hududidan paleolit davriga oid yodgorlik aniqlandi. Ko'hitang tog'ining ichki qismida ko'plab tor daralar mavjud bo'lib, ularda geologik jarayonlar natijasida ko'plab g'or va ungurlar shakllangan. Ularning biridan qadimgi davrda ibtidoiy odam ajdodlari mavsumiy boshpana sifatida foydalangan.

Dastlabki kuzatuvlar natijasida yodgorlik yer sathidan ko'plab tosh uzaklar, ularning parchalari, uchrindi va plastinalar hamda qurollar yig'ib olindi. Yodgorlik madaniy qatlamlari holatini aniqlashtirish uchun 1x2 metr hajmida shurf qazildi. Qazuv ishlari yer sathidan 0,5 metr chuqurlikda qoyatosh yotg'iziqdarida to'xtatildi. Qazuv ishlari natijasida yodgorlik bitta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlandi. Madaniy qatlam kul va kuyindi qoldiqlari bilan qoplangan qoramtir, mayda tarqoq tuproqdan tarkib topgan bo'lib, unda ham ko'plab tosh buyumlar va yovvoyi hayvon suyak qoldiqlari topildi.







Ushbu yodgorlik hududda ilgari topib o'rganilgan Teshik-tosh yodgorligiga xronologik va madaniy jihatdan o'xshashligi bilan ahamiyatlidir. Yodgorlikdan topilgan tosh buyumlar o'rta paleolit davriga tegishli bo'lib, toshga ishlov berish texnikasi va tosh buyumlar madaniy jihatdan aynan Teshik-tosh yodgorligi ana'analarini takrorlaydi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi xodimlari mazkur yodgorlikda tadqiqot ishlarini davom ettirishni rejalashtirmoqda.